XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-dekabr VII-3-030-3-44-K/24 Baxmal tumani

Baxmal tumanining 2024-yil mahalliy budjetining xarajatlar qismiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining budjet sohasidagi vakolatlari” to‘g‘risidagi 27-moddasi, “Tumanlar va shaharlar budjetlarining xarajatlari yoyilmasiga o‘zgartirishlar kiritish tartibi” to‘g‘risidagi 148-moddasiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 16^1-, 16^2- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Baxmal tuman mahalliy budjet tashkilotlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish maqsadida Baxmal tuman Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Baxmal tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash haqida”gi VI-66-198-3-44-K/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan mahalliy budjetining 2024-yil uchun xarajatlar qismiga ilovaga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Tuman hokimining Moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Sharipovga mahalliy budjetning xarajatlar qismiga kiritilayotgan o‘zgartirishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

3. Budjet tashkilotlari raxbarlariga ushbu qarorning 1-ilovasiga asosan ajratilayotgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ERGASHEV AZIZ
MAMARASULOVICH

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 20-dekabrdagi
VII-3-030-3-44-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Baxmal tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi ga ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari va yo‘nalishlariga kiritilayotgan o‘zgarishlar

ming.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil
Baxmal tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**0,0**
1	Baxmal tuman tuman soliq inspeksiyasi	202 550.0
2	Baxmal tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	-112 380.0
3	Baxmal tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	-38 700.0
4	Baxmal tuman hokimligi	-77 072.0
5	Xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashi	9 550.0
6	Yoshlar ishlari agentligi Baxmal tuman bo‘limi	10 300.0
7	Baxmal tuman veterinariya bo‘limi	-15 258.0
8	Baxmal tumani hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi markazi	7 010.0
9	Baxmal tumani fermer xo’jaliklari buxgalteriya markazi	31 550.0
10	Baxmal tuman tibbiyot birlashmasi	-113 500.0
11	Baxmal tuman sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi	113 500.0
12	Baxmal tuman sport maktabi	35 250.0
13	Baxmal tuman 6-sonli musiqa maktabi	-44 000.0
14	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	-14 800.0
15	Baxmal tuman axborot kutubxona markazi	6000.0